

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 121 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituda raqamli ta'lim texnologiyalari markazi bo'lim boshlig'i
<https://orcid.org/0009-0005-5481-3503>

Annotatsiya: Ushbu maqola raqamli texnologiyalarning aqlli va barqaror turizmni rivojlantirishdagi salohiyati o'rganilgan. Unda zamonaviy muammolarni hal qilish uchun turizm sohasida innovatsion yechimlarga ehtiyoj borligi ta'kidlangan.

Shunigdek aqlli turizm tizimlari va ilg'or xavfsizlik choralari kabi texnologiyalar turizm sohasining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynashi ko'rsatib berilgan. Yangi texnologiyalarni joriy etish orqali turizm sohasidagi kompaniyalar qanday qilib raqobatbardoshligini oshirishi va yanada barqaror rivojlanishga erishishi mumkinligi haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: turizm, yangi texnologiyalar, raqamli dunyo, sun'iy intellekt.

Abstract: This article explores the potential of digital technologies for developing smart and sustainable tourism. It highlights the need for innovative solutions in the tourism sector to address contemporary challenges. It also shows that technologies such as smart tourism systems and advanced security measures play an important role in increasing the efficiency of the tourism sector. It provides detailed information on how tourism companies can increase their competitiveness and achieve more sustainable development by implementing new technologies.

Key words: tourism, new technologies, digital world, artificial intelligence.

Аннотация: В данной статье рассматривается потенциал цифровых технологий для развития интеллектуального и устойчивого туризма. Подчеркивается необходимость инновационных решений в сфере туризма для решения современных задач. Также показано, что такие технологии, как интеллектуальные туристические системы и передовые меры безопасности, играют важную роль в повышении эффективности туристического сектора. В статье представлена подробная информация о том, как туристические компании могут повысить свою конкурентоспособность и добиться более устойчивого развития за счет внедрения новых технологий.

Ключевые слова: туризм, новые технологии, цифровой мир, искусственный интеллект.

KIRISH

Barqaror turizm – bu atrof-muhit, mahalliy madaniyat va iqtisodiyotga zarar yetkazmagan holda sayohat qilishni maqsad qilgan yondashuvdir. Raqamli texnologiyalar ushbu yo'nalishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular sayohatchilar va turizm sohasi vakillariga resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar barqaror sayohatni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt va raqamli xaritalar sayohat marshrutlarini optimallashtirib, yoqilg'i sarfini kamaytiradi. IoT texnologiyalari mehmonxonalar va turistik obyektlarda energiya va suv iste'molini nazorat qiladi. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari sayohatchilarga ekologik muqobil tajribalarni taklif etadi. Raqamli to'lov tizimlari va blokcheyn texnologiyalari esa sayyohlik sanoatida shaffof va barqaror tranzaksiyalarni ta'minlaydi. Ekologik sayohatni targ'ib qiluvchi platformalar ham raqamli marketing orqali barqaror turizmni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Kelajakda yashil energiya, sun'iy intellekt orqali shahar turizmini boshqarish va blokcheyn texnologiyalari sayohatni yanada barqaror qilishda katta ahamiyat kasb etadi.



Hozirgi kunda, aqlli texnologiyalar turli xil kasblarga katta ahamiyat kasb etmoqda. Sun'iy intellektdan unumli foydalanish turizm sohasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mehmondo'stlik sanoatini raqamlashtirish o'nlab yillar davomida takomillashib, so'nggi yillarda butun dunyo bo'ylab turizm sanoatida texnologiyani joriy etish tezlashdi. IoT, AI, VR va blokcheyn kabi innovatsion yechimlar sayohat jarayonini yanada ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan samarali qiladi. Shu bois turistik kompaniyalar va sayohatchilar raqamli texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali barqaror turizmga o'z hissasini qo'shishi lozim [11].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyot va jamiyatning "raqamlashtirish" jarayoni haqida gapirganda, birinchi navbatda, terminologiyaga aniqlik kiritish kerak. Eng keng ma'noda "raqamlashtirish" jarayoni, odatda, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va assimilyatsiya qilish tashabbusi bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishni anglatadi. Raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar tushunchalariga bir qator ta'riflar berilgan. Jumladan, professor V.Ivanov "Raqamli iqtisod - haqiqatimizni to'ldiradigan virtual muhit" deb ta'rif bergan. Professor D.Kungurovning fikricha, "raqamli iqtisod" atamasiga ikkita - klassik va an'anaviy yondashish mavjud [13].

Raqamli texnologiyalar asosida iqtisodiyotning va elektron tovar va xizmatlar eksklyuziv domen tavsiflovchi raqamli iqtisodiyot: birinchi yondashuv "klassik" deb nomlanib, klassik misollar - teletibbiyot, masofaviy ta'lim, dori-darmonlarni sotish (filmlar, televizorlar, kitoblar va boshqalar). Ikkinchi yondashuv: "raqamli iqtisod" ilg'or raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarishdir. M.L.Kalujskiy raqamli iqtisodiyot - iqtisodiy internet faoliyati, shuningdek, shakllari, usullari, vositalari va uni amalga oshirish aloqa muhitidir, deb ta'riflagan [14].

Akademik S.S.G'ulomov (2010) o'z ilmiy ishlarida axborotlar oqimlarini optimal tashkil qilish, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini ishlab chiqish va amaliyotda samarali qo'llash va raqamli iqtisodiyotning shakllanib borish jarayonlari keng yoritib bergan. Professor Alimov (2001) olib borgan tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalariga axborot tizimlarini joriy qilish, ularning tizimostilarini optimal loyihalashtirish, texnik va dasturiy-texnologik vositalardan samarali foydalanishning iqtisodiy-matematik modellarini taklif qilgan [15].

B.A.Begalov (2013) ilmiy ishlarida statistik reglament masalalarini yechish-ning algoritmlari va modellarini, axborotlashgan jamiyatning shakllanishi tendensiyalarini, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda AKTdan keng foydalanish mexanizmlarini va ta'lim jarayonlariga innovatsion axborot texnologiyalarini keng joriy qilish muammolarini o'rgangan. Quchkarov (2019) o'z ilmiy ishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini moliya tizimi muammolarini hal qilishda qo'llash, g'aznachilik masalalarini ilg'or axborot tizimlari asosida yechishning yangi yondashuvlarini va idoralararo axborot almashuvni keng yo'lga qo'yishda axborot tizimlarining integratsiyasini yo'lga qo'yish kerakligini taklif qilgan [15]. Laudon, Laudonlar (2015) o'z tadqiqot ishlaridan axborot tizimlarini ishlab chiqish va iqtisodiyot tarmoqlarida samarali qo'llashning metodologiyasini taklif qilishgan. Ularning ilmiy ishlarida axborot tizimlari-rining infratuzilmasi, tarmoq texnologiyalari, axborot tizimlarini loyihalashtirish va ishlab chiqish, axborot texnologiyalarining infratuzilmasi kabi masalalar ko'rib chiqilgan [15].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida raqamli iqtisodiyotni korxonalarda qo'llash orqali korxonalar raqobat bardoshligini oshirish shakllantirishdagi o'rni bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Maqolada ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, ilmiy mushohada, tasviriy statistik taqqoslash usullaridan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Texnologik taraqqiyot turizm faoliyatiga shiddat bilan kirib bormoqda, xususan, GPS navigatsiyasidan foydalangan holda mobil telefonlar uchun noyob multimedia qo'llanmalari ishlab chiqilmoqda va sayyohlarga taklif etilmoqda. Turistik biznes tadbirkorlikning harakatlanuvchi yo'nalishi hisoblanadi. Soha vakillari doimiy ravishda mijozlar bilan aloqada bo'lishlari, har qanday vaziyatni masofadan turib muvofiqlashtirishlari, har qanday savol va sharhlarga imkon qadar tezroq javob berishlari tayyor bo'lishlari kerak.

Bunda turistik agentliklarga maxsus ishlab chiqilgan mobil ilovalar muhim yordamchi bo'ladi. Texnologiyalar va internetning kuchini tushunish uchun yillar va o'nlab yillar kerak bo'ldi. Endi esa bir yilda bir mahsulot bir nechta yangilanishlar boshdan kechirmoqta, dasturiy ta'minot, telefon, avtomobillar, texnologiyalar va internet har kuni rivojlanmoqda. Texnologiyalar asta sekin yangi asosiy taxminlarning tubdan o'zgarishini yaratdi, sanoat tuzilmasini butunlay o'zgartirish va yangidan-yangi imkoniyatlar va tahdidlar yuzaga olib chiqdi. Bu sayyohlik korxonalari, mahsulotlari va tajribalarida, shuningdek, butun biznes tizimida va yo'nalishlarida to'liq inqilobga olib keldi [11].



Texnologiyalashtirish, shuningdek, turizm ishlab chiqaruvchilari va iste'molchilarining an'anaviy rollarini o'zgartirib, yangi rollar, munosabatlar, biznes modellari va mahorat to'plamlarini keltirib chiqardi. Texnologiyaning paydo bo'lishi turistik takliflar, xizmatlar va tajribalar qatori va miqdorini sezilarli darajada kengaytirdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining, jumladan, Internet, mobil ilovalar, virtual reallik, sun'iy intellekt va boshqa ko'plab sohalarning doimiy rivojlanishi turizm biznesi o'zgartirmoqda. Ushbu yangi texnologiyalar turistik xizmatlarni bron qilish, targ'ib qilish va tashkil etish jarayonlarini takomillashtirish va optimallashtirish imkoniyatlarini taklif etadi hamda turizm imkoniyatlari chegaralarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Yangi texnologiyalarning turizm biznesining rivojlanishiga mumkin bo'lgan ijobiy ta'siridan biri bu turistik xizmatlarni bron qilish va sotish jarayonlarini takomillashtirishdir. Internet va mobil ilovalar sayyohlarga turlar, mehmonxonalar, avia chiptalar va boshqa xizmatlarni tez va oson izlash, taqqoslash va bron qilish imkonini beradi. Airbnb va Booking.com kabi platformalar kichik mehmonxonalar va apartmentlarni o'z xizmatlarini osonroq va samarali sotish imkonini yaratdi.

Onlayn bron qilish, virtual reallik, mobil ilovalar – bularning barchasi turizm industriyasini rivojlantirish va takomillashtirishga xizmat qiladi. Biroq, texnologiya haqiqiy sayohat, madaniyat va tabiatga yaqinlikni to'liq almashtira olmasligini hisobga olish kerak. Eng so'nggi texnologiyalar va sayohatlarning uyg'unligi sayyohlar uchun yaxshi tajriba taqdim etishi mumkin. Turizm sanoatiga yangi texnologiyalarning qo'shilishi eng yuqori darajada o'zgarishiga olib keldi, umumiy sayohat tajribasini, operatsion samaradorlikni oshirdi va yanada samarali marketing strategiyalarini yaratdi.

Ushbu yutuqlar ko'plab imkoniyatlarni taqdim etsa-da, ular doimiy moslashish zarurati va raqamli bo'linish muammolari kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Shunga qaramay, davom etayotgan texnologik evolyutsiya turizm landshaftini yanada o'zgartirishi, sayohatni kelajak avlodlar uchun yanada qulay, yoqimli va barqaror qilishi kutilmoqda. Yangi texnologiyalarning turizm va barqaror "sustainable" turizmga ta'siri juda katta, viloyat aholisining o'zlarini aqlli gadgetlari ya'ni telefon yoki noutbuk orqali ijtimoiy tarmoqlarda faollashtirishi reklama qilishi turizm oqimini kuchaytirishi mumkunligini isbotladi. Masalan tripadvisor.com kabi turizmga bag'ishlangan veb-saytlarda aholi o'zining yashash joyidagi mavjud turistik taklif bera olish qobiliyatini ko'rsatishi mumkin.

Demak, kelgusida ham mahalliy, ham xorijiy turistlar uchun mo'ljallangan mobil ilovalarni takomillashtirish shuningdek, turistlarga qulaylik yaratish maqsadida Android hamda iOS dasturiy ta'minotlariga asoslanish kerak bo'ladi. Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan virtuallik (AR) – bu ikkalasi pandemiyadan so'ng yanada ommabop tur sifatida keng tanildi chunki virtual haqiqat sayohatlar: potentsial sayyohlarga sayohat to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin deyarli yo'nalishlar, mehmonxonalar va diqqatga sazovor joylarni o'rganishga ruxsat berdi [11]. AR qo'llanmalari: tarixiy faktlar yoki navigatsiya bo'yicha maslahatlar kabi raqamli ma'lumotlarni smartfonlar yoki AR ko'zoynaklari yordamida real muhitga joylashtirish orqali tajribani yaxshilashi mumkin (1-rasm) [10].




1-rasm. Androit va ios mobil operatsion tizim.



O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarni amalda sinab ko'rish imkoniyatlari, kuchli, zaif tomonlari va tahdidlarini tahlili.

Kuchli tarafi:

- O'zbekiston o'zining boy madaniy va tarixiy meros bilan ommaga tanilgan. O'zbekiston Samarqand, Buxoro va Xiva kabi ko'plab madaniy va tarixiy obidalariga ega bo'lib, ularni VR va AR kabi texnologiyalar yordamida o'zgacha tajriba bilan sayohatchilarni ta'minlash mumkin. - Hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash (2-3 rasmlar) [10].



2-rasm. Virtual reallik tizimi ishlash blok sxemasi.

- O'zbekiston hukumati turizmni rivojlantirishga faol ko'maklashmoqda va innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratib, zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni qo'llab-quvvatlamogda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.07.2023-yildagi PQ-238-soniga muvofiq "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" imzolandi [11].



3-rasm. VR texnologiyasiga asoslangan VR ko'zoynagining turli xildagi ko'rinishlari.

- O'sib borayotgan turizm infratuzilmasi. So'nggi paytlarda turizm infratuzilmasini, shu jumladan aeroportlar, mehmonxonalar va transportni yaxshilashga kiritilgan sarmoyalar yangi texnologiyalarni birlashtirish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi aeroportlarini xususiy sherikka berish bo'yicha davlat komissiyasining tarkibi 3 ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Zaif tarafi:

Hozirgi kunda O'zbekiston infratuzilmadagi bo'shliqlar yaqqol ajralib turmoqta. Internetga ulanishning nomuvofiqligi va ilg'or texnologik infratuzilmaning yo'qligi, ayniqsa shahardan chekka joylarda, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga to'sqinlik qilishi mumkin.

- Malakali ishchi kuchining etishmasligi. Yangi texnologiyalarni samarali amalga oshirish, boshqarish va saqlash uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislar etishmasligi.

- O'zgarishga qarshilik ya'ni an'anaviy manfaatdor tomonlarning qarshiligi va zamonaviy texnologiyalarning afzalliklari to'g'risida xabardorlikning etishmasligi qabul qilish jarayonini sekinlashtirishi mumkin.


Imkoniyatlar:

- Texnologik yutuqlar deganda nazarda tutiladi Sun'iy intellekt, IoT217, virtual reallik va big data tahlili kabi texnologiyalarning jadal rivojlanishi sayyohlik tajribasi va operatsion samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

- Xalqaro texnologik kompaniyalar, startaplar va ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari tajriba va innovatsiyalarni keltirib chiqarishi mumkin.



Tahdidlar: - Kiber Xavfi: texnologiyaga bo'lgan ishonchning ortishi kiberhujumlar va ma'lumotlarning buzilishi xavfini oshiradi, bu esa ishonch va xavfsizlikka putur etkazishi mumkin. "Har kuni 4000 ga yaqin yangi kiberhujumlar sodir bo'ladi [11]. Har 14 soniyada bir kompaniya har kuni 560,000 yangi dasturlar aniqlanganda halokatli moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan to'lov dasturlari hujumining qurboniga aylanadi." deydi Prartana Kennedi havfsizlik buyicha LinkedIn mutaxasisi (4-rasm) [10].



4-rasm. Bulutli texnologiyalarda kiberhavfsizlik.

- Iqtisodiy o'zgaruvchanlik. Masalan, global voqealar (pandemiya, siyosiy notinchlik) tufayli iqtisodiy beqarorlik va turizm talabining o'zgarishi texnologiyalarga sarmoyalarga ta'sir qilishi mumkin.

O'zbekistonning turizm sohasida zamonaviy texnologiyalarni amalda sinab ko'rish va joriy etish sayyohlik tajribasini oshirish, operatsion samaradorlikni oshirish va sohaning raqobatbardoshligini oshirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Kuchli va imkoniyatlar mavjud bo'lsa-da, infratuzilma kamchiliklari va malakali ishchi kuchining etishmasligi kabi zaif tomonlarni bartaraf etish, kiberxavfsizlik xavfi va iqtisodiy o'zgaruvchanlik kabi tahdidlarni kamaytirish juda muhimdir. Strategik investitsiyalar, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va innovatsiya madaniyatini rivojlantirish O'zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalardan muvaffaqiyatli foydalanish uchun kalit bo'la oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi globallashuv davrida turizm industriyasi ko'plab muammolarga duch kelmoqta va shunday muammolarni hal qilish turizm industriyasi texnologik yechimlardan foydalanmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistondagi eng ommabop muammolardan biri bu logistika muammolari hisoblanadi chunki transport, turar joy samarali muvofiqlashtirilmaydi.

Texnologik echimlar sifatida birinchi taklif bu integratsiyalashgan sayohat platformalarini yaratish, uzluksiz sayohat tajribasini ta'minlash uchun bron qilish, tashish va faoliyatni rejalashtirishni birlashtirgan platformalarni ishlab chiqish. Keragidan ortiq turistlarni tashrif buyurishi bu salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, haddan tashqari turizm atrof-muhitning buzilishiga, mahalliy infratuzilmaning buzilishiga va aholining hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Texnologik echimlar bular ma'lumotlar bazasi va tahlillar: sayyohlar oqimini kuzatish va bashorat qilish uchun ma'lumotlar tahlilidan foydalanish, bu esa tashrif buyuruvchilar sonini boshqarish imkonini beradi.

Aqlli turizmni boshqarish ya'ni muayyan hududlarda turistik zichlik to'g'risida real vaqtda ma'lumotlarni to'plab IoT sensorlarini amalga oshirish va ushbu ma'lumotdan sayyohlarni kamroq gavjum joylarga yo'naltirish uchun foydalanilmoqda. Xavfsizlik masalalari eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi chunki xavfsiz mamlakatlarga asosan turistlar eng ko'p tashrif buyurimoqda. Sayohatchilar va ularning ma'lumotlari xavfsizligi va xavfsizligini ta'minlash uchun biometrik xavfsizlikdan foydalanish mumkin aeroportlar, mehmonxonalar va diqqatga sazovor joylarda xavfsiz va samarali identifikatsiya qilish uchun yuzni aniqlash va barmoq izlarini skanerlashdan foydalanilmoqda hozirgi kunda Qo'shma Shtatlarda. Kuzatuv tizimlari masalan shubhali harakatlarni real vaqtda kuzatish va aniqlash uchun bugungi kunda ilg'or texnologiyalar zarur [11].



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, yangi texnologiyalar turizm sohasida innovatsiyalar, o'sish va barqarorlik uchun istiqbolli imkoniyatlarni taqdim etsa-da, ular diqqat bilan ko'rib chiqish va strategik rejalashtirishni talab qiladigan turli xil qiyinchiliklar va xavflarni keltirib chiqaradi. Turizm manfaatdor tomonlari kuchli tomonlardan foydalanish, zaif tomonlarni hal qilish, imkoniyatlardan foydalanish va tahdidlarni yumshatish orqali texnologik o'zgarishlarning dinamik manzarasida harakat qilishlari va turizm kelajagini shakllantirishda raqamli transformatsiyaning barcha imkoniyatlarini ochishlari mumkin.

Biroq, ko'pgina afzalliklarga qaramay, yangi texnologiyalarning turizm biznesiga ta'siri o'zining salbiy tomonlariga ham ega bo'lishi mumkin. Texnologiyadan nazoratsiz foydalanish xavfsizlikka oid muammolarni, shaxsiy hayotning buzilishi va texnologiyaga qaramlikka olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, sanoatdagi ko'plab kichik va o'rta kompaniyalar uchun yangi texnologiyalarni joriy etish murakkab va qimmatli jarayon bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasining "Xususiy korxona to'g'risida"gi 2023-yil 11- dekabrdagi PQ-558-II-sonli Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
6. Xoliqulov A.N., Usmanova D.Q., Raximov X.A., Korxonalarni raqobatbardoshligini baholash. O'quv qo'llanma. T: "TURON NASHR" nashriyoti, 2021. -212 b.
7. Ali Berkay Avci, Gamze Akyol (2023) The role of digital technologies in enhancing heritage tourism.
8. Doctor Chaturaporn Sihabutr (2012) Technology and international specialisation in tourism. 121-122 pp.
9. Gulomkodiroya, M. S. (2024). A study on various e-recruitment tools and its effectiveness for recruitment. qo'qon universiteti xabarnomasi, 10(10), 32–34. <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.902>
10. R.M.Zulunov, Z.N.Samatova. Kiber xavfsizlik muammolari va uni ta'minlash usullari. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali "Al-Farg'oniy avlodlari" elektron ilmiy jurnali ISSN 2181-4252. 2024-yil.
11. N.Rahmonova, M.F.Xo'jayeva. Smart turizm: raqamli texnologiyalar yordamida barqaror sayohatni rivojlantirish. Turizm sohasini rivojlantirishda xorijiy tajriba va innovatsion yondashuvlar xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. QU. 584–587 b. 2023 y.
12. Yo'ldoshmaxmudov Sh., Raqamli iqtisodiyot: yangi biznes imkoniyatlari // "O'zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022 yil 30 noyabr.
13. Porsaev G'.M., Safarov B.Sh., Usmanova D.Q., Raqamli iqtisodiyot asoslari. (Darslik) –T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2020. 372 b.
14. Qodirov S., Sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning xususiyatlari, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, 2/2022, mart-aprel.
15. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirishdagi zamonaviy trendlar: tajriba, muammo va istiqbollar. // Ilmiyamaliy anjuman ma'ruza tezislari to'plami. 2020 yil 14 oktyabr. – Toshkent. 2020.
16. Gulomkodiroya mamura saydumarxon qizi. (2024). A study on safety measures implemented by le roma gardenia resort (vrs infra) during the covid-19 pandemic. galaxy international interdisciplinary research journal, 12(2), 78–84. retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/6446>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
